

BOLALAR NASRINING AMERIKA VA O'ZBEK ADABIYOTIDAGI

O'RNI

Adilova Fotimaxon Muxammadanasovna

O'zDJTU

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21497601>

Annotatsiya: Maqolada Amerika va o'zbek adabiyotida bolalar nasrining shakllanishi hamda taraqqiyot bosqichlari yoritiladi. Unda bolalar nasrining xalq og'zaki ijodi, folklor, mumtoz adabiyot va pedagogik qarashlar bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, bola obrazining tarbiyaviy, axloqiy va estetik ahamiyati hamda bolalar nasrida umuminsoniy qadriyatlarning badiiy ifodalanishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: bolalar nasri, bolalar adabiyoti, Amerika adabiyoti, o'zbek adabiyoti, bola obrazi, folklor, tarbiya, umuminsoniy qadriyatlar, badiiy tafakkur

МЕСТО ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ В АМЕРИКАНСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация: В статье рассматриваются становление и основные этапы развития детской прозы в американской и узбекской литературе. Анализируется органическая связь детской прозы с устным народным творчеством, фольклором, классической литературой и педагогическими взглядами. Кроме того, с научно-теоретической точки зрения обосновываются воспитательное, нравственное и эстетическое значение образа ребёнка, а также художественное воплощение общечеловеческих ценностей в детской прозе.

Ключевые слова: детская проза, детская литература, американская литература, узбекская литература, образ ребёнка, фольклор, воспитание, общечеловеческие ценности, художественное мышление

THE PLACE OF CHILDREN'S PROSE IN AMERICAN AND UZBEK LITERATURE

Abstract: *This article examines the formation and major stages in the development of children's prose in American and Uzbek literature. It analyzes the close relationship of children's prose with oral folk traditions, folklore, classical literature, and pedagogical thought. The study also provides a theoretical foundation for the educational, moral, and aesthetic significance of the child image and explores the artistic representation of universal human values in children's prose.*

Keywords: *children's prose, children's literature, American literature, Uzbek literature, child image, folklore, education, universal human values, artistic thinking*

Ma'lumki, deyarli har bir ijodkor ozmi-ko'pmi bolalik mavzusiga, bola obraziga murojaat qiladi. “Yozuvchilarning bolalik mavzusi, bola va o'smir obraziga murojaati hamda voqelikni ular nuqtai nazaridan bayon qilish teran falsafiy, axloqiy va estetik ma'noga ega. Bola dunyoqarashi ifodalangan kontekstda murakkab maishiy muammolar yoritilishining sabablaridan biri, shubhasiz, ontogenez (indivud rivoji) va filogeneza (tur va jinslar rivoji)ga o'xshashlik hisoblanadi” [1]. Darhaqiqat, har odam dunyoga kelgach, hayotining ilk paytidagi shakllanish va o'z ajdodlariga xos rivojlanish bosqichini bosib o'tadi. Bu esa keyinchalik uni ana shu mavzuga qaytishiga imkon bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun, barcha davrlarda bolalik mavzusi va bola nigohi orqali olamni tasvirlash, badiiy aks ettirish dolzarblik kasb etib kelgan.

Qadim zamonlardan beri kishilar o'z nasli, avlodining davom etishi va farzandlari ajdodlariga nisbatan kuchli, bilimli, baxtli bo'lishlari hamda farovon yashashlari uchun harakat qilib kelishadi. Bu, birinchidan, ma'lum urug' yoki qabilaning nisbatan uzoqroq yashab qolishini ta'minlasa, ikkinchidan, ular oldiga o'z izdoshlarini tarbiyalash vazifasini qo'yadi. Chunki tabiat hodisalarining boshlanishi va yakunini bilish, yirtqich hayvonlar hammasi va boshqa urug', qabila

hujumidan omon qolish, shuningdek, boshqalardan ustunlikni ta'minlash uchun epchil, chaqqon, kuchli, aqlli, jasur, adolatli bo'lish shart bo'lar edi. Bundan murakkab vazifa bola tug'ilgan ilk daqiqalardan boshlanadi. Natijada bolalar tarbiyasi uchun qator og'zaki asarlar yuzaga kelgan. Alla ana shunday janrlardan biri sanaladi.

Bu mulohazalar bola rivojlanishining nafaqat moddiy, jismoniy, balki ma'naviy, axloqiy tomonini ham qamrab oladi. Qadimda odamlar borliq, olam va tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatib, ular haqidagi bilim, ko'nikma, tajriba va malakalarini o'z bolalariga ular kichikligidanoq o'rgata boshlashgan. To'g'ri, bu davrda bolalar adabiyoti alohida ajralib chiqmagan edi. U boshqa sohalar, masalan, tabiatni kuzatish, ovchilik, merganlik, tosh taroshlash kabilar bilan aralash holda kelib, ular sinkretik xususiyatga ega bo'lgan. Bundan tashqari, ibtidoiy davrda odamlar jamoa bo'lib yashaganliklari uchun ko'p narsa umumiy edi. Hatto bola tarbiyasida ham umumiylik kuzatilar edi. Ya'ni bunda bola tarbiyasi bir urug', jamoa darajasida emas, avvalo, umuminsoniy darajada olib borilgan. Shuning uchun bolalar folklorida insonparvarlik, hayotsevarlik, do'stlik, mehnatsevarlik kabi g'oyalarga katta urg'u berilgan. Eng muhimi, ularda didaktika kuchli bo'lgan.

Har bir personaj va uning xatti-harakati hayotiy voqealar bilan qoshib, tarbiyaviylik tusini olgan. Masalan, "Uch og'ayni botirlar" ertagida bola tarbiyasiga oid muhim jihatlar uch o'g'ilni voyaga yetkazgan ota tilidan bayon etilgan: – O'g'illarim, men boy emasman, mendan qolgan davlat sizlarning maishatingiz uchun kifoya qilmaydi, mendan ortiq narsa umid qilib o'tirmanglar, o'zimdanoq baxtsiz bo'lib qolmanglar, deb sizlarni o'qitdim. Yaxshi ot qo'ydim. To'y qildim. Voyaga yetkazdim. Buning ustiga yana sizlarni uch narsa bilan tarbiya qildim: birinchidan sog'lom vujudli qildim - Quvvatli bo'ldingizlar. Ikkinchidan, yarog' bilan tanishtirdim – qurol ishlatishga usta bo'ldingizlar. Uchinchidan, qo'rqitmay o'stirdim – Qo'rqqoq bo'lmay, botir bo'ldingizlar. Yana uchta narsani aytaman, quloqlaringga olib, eslaringizdan chiqarmanglar. To'g'ri bo'ling – bexavotir

bo'lasiz. Maqtanchiq bo'lmang – xijolat tortmaysiz. Dangasa bo'lmang – baxtsiz o'lmaysiz. Mana bundan boshqasini o'zingiz biling [2]. Ota o'g'illarini o'z hayot yo'llarini topishlari uchun safarga kuzatar ekan, o'z farzandlariga aytgan nasihatlar bolalar nasrining asosiy g'oyasiga aylangan. Dunyoning deyarli barcha xalqlarida otalar o'z farzandlariga ana shunday tarbiya berishadi. Demak, bolalar nasridagi mazkur g'oyalar umuminsoniylik kasb etadi.

“O'zbek bolalar folklorida bolalikning qalb tebranishlari, qiziqish va ehtirolari, voqelikka munosabatlari o'z ifodasini topgan. Bolalar shular bilangina cheklanmagan: ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot taqozosi bilan kattalar repertuarlariga daxldor ayrim folklor namunalarini, “o'zlashtirib”, o'zlariniki qilib olganlar” [3]. Demak, bolalar folklorida kattalar folkloriga oid badiiy-estetik ta'sir, ahloq, odob kabi bir qator ijobiy fazilatlar bor. Bu xususiyat keyinchalik bolalar adabiyotiga, jumladan, bolalar nasriga ham ko'chgan.

Abu Nasr Forobiy fozil odamlar shahrida hamma narsa jamoa bilan birga hal etilishi, bu yerda yashovchi har bir odam erkin ekanligi, fuqarolik siyosati haqida so'z yuritayotib quyidagilarni “Uning (ya'ni fozil odamlar yashaydigan shahar) maydoni kengayadi. ... Bu yerda turli urug'ga va tarbiyaga mansub bolalar dunyoga keladi” [4]. Shundan so'ng olim fozil jamiyat yaratish, baxtga erishi har bir odamning orzusi ekanligi, ammo ko'pchilik buni qanday amalga oshirishni bilmasligini ta'kidlab, bolani yoshligidan tarbiyalash, unga yaxshi xulq, odob, kasb-hunarga o'rgatish haqida fikr bildiradi. Uning mazkur fikriga yaqin fikrlarni biz Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” (Saodatga eltuvchi bilim) nomli dostonida uchratamiz. Yusuf Xos Hojib mazkur dostonida bola tarbiyasi ta'lim-tarbiya bilan bo'lishi, bolaning komil inson bo'lib yetishishi uchun unga o'z davrining ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy, madaniy bilimlarini saboq berilishi kerakligini alohida ta'kidlaydi:

Nesa ma bu kun soz senga aysa oz,
Kichiklarka bashlab ayayim bu soz.

(Bugun qancha so'z aytsan, senga, uni kichiklardan boshlab aytayin) [5].

Ko'rinadiki, o'zbek mumtoz adabiyotida bolalar tarbiyasiga oid turli qarashlar katta yoshdagi kishilar tarbiyasi, jamiyat qurishi bilan aralash keladi. To'g'ri, keltirilgan misol dostonga tegishli degan e'tirozli fikr tug'ilishi mumkin. Ammo, doston mumtoz adabiyotda epik turning asosiy janri sifatida e'tirof etilgan va unda epik bayon yetakchilik qiladi. Bundan tashqari, unda ilgari surilgan g'oya bevosita mavzumizga daxldor sanaladi. Shuning uchun uni bolalar nasri taraqqiyotidagi o'rni ko'rsatib o'tildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Stetsenko Ye. Kontsept detskosti v literature SShA. / Literatura dvux Amerik. № 2. 2017. – S.388.
2. O'zbek xalq ertaklari. Uch jildlik. I- jild. / Tuzuvchilar: M.Afzalov, X.Rasulov, Z.Husayinova. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – 112-bet.
3. Safarov O. Bola kuylasa – olam munavvar. / Boychechak. Bolalar folklori va mehnat taronalari. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. – 321-b.
4. Al-Farabi, Abu Nasr Muxammed Sotsialno-eticheskie traktati. Per. s arabskogo]. Alma-Ata, «Nauka».1973. – S.159.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. / O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-jild. –Toshkent: Fan, 2003. – 143-b.